**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada asosan raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoning rivojlanish dinamikasini o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi. Elektron tijoratning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatildi. Tadqiqot jarayonida elektron savdoni rivojlantirish jihatlarini o'rgangan turli xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari tahlil qilingan. Jahon elektron savdo rivojlanishini baholashda turli xalqaro eksperlar hisoboti ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, miqdor va sifat, taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlillar va natijalar.** 1994-yildan AQShda boshlangan elektron tijorat *global savd*ning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Boshqa ko'plab sohalar kabi, tovarlarni sotish va sotib olish jarayoni internet paydo bo'lishidan keyin jiddiy transformatsiyalashuvni boshidan kechirdi. Raqamlashuv tufayli butun dunyodagi iste'molchilar endi onlayn tranzaksiyalardan foydalanmoqda. Internet orqali buyurtmalar berish tez sur'atlar bilan o'sib borayotganini 2022-yilda butun dunyoda **5 milliarddan** ortiq foydalanuvchi onlayn xaridlarni amalga oshirganligidan ko'rish mumkin [13].


O'zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa, elektron tijoratning ahamiyati juda oshib bormoqda. "Elektron tijorat" termini EDI (Elektronik Data Interchange – ma'lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi [14]. Kompaniya axborot texnologiyalarini samarali qo'llash orqali iste'molchi bilan ochiq munosabat o'rnatish, mahsulot va xizmatlar to'g'risida hamkor va mijozlarni tezkor axborot

bilan ta'minlash, sotuvning alternativ yo'llarini, misol uchun tijorat saytlarida elektron do'konlar ochish va yaratish imkoni beradi.

Y.Nanehkaranning ta'riflashicha, "Elektron tijorat inson hayotini tubdan o'zgartirgan kuchli innovatsion jarayon bo'lib, elektron tijorat ham iqtisodiy sohada axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari inqilobining asosiy mezonlaridan biridir"[15]. J.Ritterga ko'ra, "Elektron tijorat yoki elektron savdo – bu Internetda tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotish hamda Internet platformasida iste'molchilar tomonidan narxlarni solishtirish va eng so'nggi ma'lumotlarni ko'rish uchun ma'lumot manbai[16]". Ya'ni, elektron tijorat internet orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olish va sotishni, shuningdek, transchegaraviy xususiyatlarga ega bo'lgan va ma'lum bir mamlakatning chakana eksportini osonlashtiradigan savdo turini o'z ichiga olgan biznes turidir.

Elektron tijorat yoki elektron savdo (e-commerce) - bu elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda mahsulotlar, xizmatlar va ma'lumotlarni sotib olish, sotish, o'tkazish yoki almashtirish jarayoni[17]. Elektron tijoratning boshqa ta'riflari mavjud, masalan, bu foyda olish maqsadida tijorat faoliyati va kompyuter tarmoqlaridan foydalanish orqali tijorat tsiklni kompleks avtomatlashtirishga asoslangan. Iqtisodchilar elektron tijoratni "kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalar, moliyaviy va savdo operatsiyalari bilan bog'liq barcha biznes jarayonlarni qamrab oladigan milliy iqtisodiyot sohasi[18]" deb ta'riflaydilar. Elektron tijorat to'g'risidagi qonunida elektron tijorat atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Elektron tijorat - Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarga ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir [19].

Elektron savdo yoki elektron tijorat korxonalarining ichki operatsiyalarida samaraliroq va moslashuvchan bo'lishga, yetkazib beruvchilar bilan yanada yaqinroq ishlashga va mijozlarning talablari va ehtiyojlariga tezroq javob berishga imkon beradi. Qolaversa, bu kompaniyalarga geografik joylashuvidan qat'iy nazar eng yaxshi etkazib beruvchilarni tanlash va jahon bozorida sotish imkoniyatini ham beradi. Elektron tijoratning bir nechta asosiy turlari bo'lib ularni quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Elektron tijoratning asosiy turlari [20].**


Elektron tijorat elektron to'lovlarni amalga oshirish, mijozlar va yetkazib beruvchilarni qidirish, reklama tarqatish, internet ilovalari orqali tovarlarni sotib olish va sotish operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Elektron tijorat nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki iste'molchilar uchun ham ko'plab afzalliklarga va shu bilan birga ba'zi bir kamchiliklarga ham ega ekanligi haqida quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

**1-jadval.**

**Elektron tijoratdan foydalanishning asosiy afzalliklari va kamchiliklari [20].**

<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
Geografik cheklovlarning yo'qligi, bunda internet global bo'lganligi sababli tovarni istalgan joyga sotish imkoniyati.	Raqobat yuqori darajada bo'ladi. Chunki qulaylik sababli bozorga hamma kirib kelishi mumkin.
Bir vaqtning o'zida bir necha mahsulotlarni namoyish qilish	Tovar hajmi kichik bo'lganda yetkazib berish har doim ham o'zini oqlayvermaydi.
Har ikkala tomon uchun ham vaqtni tejash imkoniyati	Tovarni sotib olishdan oldin uni ko'rishni xohlovchi iste'molchilarning ko'pligi
Marketing va reklama strategiyalarini ishlab chiqishda qulay imkoniyatlar	Barcha tovarlarni ham bir xil qulaylikda internet orqali sotib bo'lmaydi.
Xaridorga mahsulot haqida batafsil ma'lumot yetkazish imkoniyati	"Fishing", Shaxsiy ma'lumotlar, login va parollar va shu kabi ma'lumotlarni o'g'irlash bilan bog'liq hujumlar
Tanlov. Xaridor uchun mahsulotning narxlari va xususiyatlarini bir vaqtning o'zida boshqa mahsulotlar bilan taqqoslash mumkinligi	Onlayn sahifa yoki server bilan bog'liq muammolar sabab internet do'konni qisqa vaqtda yo'qotish xavfi
Erkin ish vaqti va vaqt bilan bog'liq cheklovlarning yo'qligi. Ish vaqtini shaxsiy hayot bilan moslashtirish imkoniyati	Iste'molchilar tomonidan beriladigan savollarga darhol javob berishda vaqt bilan bog'liq muammolar
Raqamlashtirish orqali xarajatlarni tejash tejash va samaradorlikni oshirish.	To'lov xavfsizligi. Pul o'tkazmalari jarayonidagi xatolar va yo'qotishlar.
Raqamlashtirish va transformatsiya orqali innovatsiyalar va yangi turdagi tovar va xizmatlar yaratish imkoniyati	elektron tijorat doirasida sotiladigan mahsulot yoki xizmatga nisbatan intellektual mulk huquqlarini himoya qilish muammosi
Soha nisbatan yangi bo'lganligi sababli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va soliq borasidagi imtiyozlar	maxfiylik, identifikatsiya va avtorizatsiyani kafolatlaydigan ishonchli va samarali mexanizmlardan foydalanish masalasi

Dunyo bo'ylab internet orqali buyurtmalar tez sur'atlar bilan o'sib borayotgani sababli, butun jahonda **5 milliarddan** ortiq internet foydalanuvchilari onlayn xaridlarni amalga oshirishi kutilmoqda. "Business Insider", "eMagketeg" analitik kompaniyalarining tadqiqotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha chakana elektron tijorat savdosi global miqyosda 6 trillion AQSH dollaridan oshdi va kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yangi cho'qqilarga chiqishi kutilmoqda.




**2-rasm. Dunyo bo'ylab chakana elektron tijorat savdolari hajmi o'zgarishi dinamikasi [21].**

(Mlrd AQSh dollarida 2014-2025-yillar)

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda "e-commerce" dunyo chakana savdosi umumiy hajmining 22,3 foizini tashkil qildi[22]. Ijtimoiy tarmoqlarda bunday o'sish dinamikasi tarqalishi va doimiy rivojlanayotgan IT-infratuzilmasi va texnologiyalari, shuningdek, ko'plab kompaniyalarning o'z mahsulotlarini va xizmatlarini "digital" formatiga o'tkazish tendensiyasi bilan bog'liq. Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2022-yil holatiga 3,3 foizni tashkil etadi[23]. Foyda solig'i stavkasini 15% dan 7,5% gacha pasayishi va tovar (xizmatlar) bilan elektron savdo qiladigan elektron tijorat sub'ektlarining Milliy reestriga kiritilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun aylanmadan olinadigan soliqning pasayishiga qaramasdan, respublikadagi xufiyona sektoridagi elektron tijorat bozori darajasi 4,9 trillion so'm qilib baholanmoqda[24].


O'zbekistonda elektron tijoratni tadbirkorlik faoliyatining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rish mumkin. Chunki, uni rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar va resurslar mavjud: aholining kompyuter savodxonligining o'sishi, past trafik narxlari bilan yuqori sifatli internetning butun mamlakat bo'ylab tarqalayotganligi va boshqalar.




**3-rasm. O'zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi [25]**  
(mlrd. so'mda)

O'zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi yildan-yilga barqaror ravishda o'sib bormoqda. Xususan, 2016-yilda chakana savdolar hajmi 88 071.6 mlrd. so'mni tashkil etib, huddi shu yili elektron tijorat savdo hajmi esa atigi 6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib esa chakana savdolar hajmi 326 160 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan 2022-yilga nisbatan 20% foizga o'sish kuzatilgan. Elektron tijorat savdo hajmi esa 2023-yilda 12684.8 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan 2022-yilga nisbatan 16% ga o'sish kuzatilgan(3-rasm). Bu umumiy chakana savdo hajmining qariyb 4 foizini tashkil etadi.

2018-yilning 1-iyulidan boshlab elektron shaklda onlayn [www.e-tijorat.uz](http://www.e-tijorat.uz) internet-portalida elektron tijorat sub'yektlari milliy reyestri ishga tushirilgan. Saytda reyestrga a'zo bo'lish uchun ariza berish bo'yicha yo'riqnoma hamda elektron tijoratga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar joylashtirilgan, shuningdek, reyestr haqidagi barcha savollar bo'yicha murojaat qilish uchun telefon raqam ham keltirilgan. Milliy reyestr regulyatori – O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi hisoblanadi. Regulyator milliy reyestri yuritish, shakllantirish va rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Elektron tijoratdagi tovarlar va xizmatlar savdosidan tushgan daromadlari umumiy daromadlarining 80 va undan ortiq foizini tashkil etgan elektron tijorat sub'yektlarigina reyestrga kiritiladi. Bunda elektron tijoratdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan daromadlar to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi va hisob-ma'lumotnoma bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Mazkur sub'yektlar reyestrga kiritilganidan keyin yagona soliq to'lovini 2 foiz pasaytirilgan stavka bo'yicha to'lashni boshlaydilar. Milliy reyestrga a'zo bo'lish olti bosqichdan iborat (4-rasm)





#### 4-rasm. Elektron tijorat subektlarining milliy reyestrqa a'zo bo'lish bosqichlari [20].

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar Milliy reyestrqa ixtiyoriy va bepul asosda kiritilgan bo'lib, elektron savdo orqali tovar va xizmatlarni sotishdan tushadigan daromad ular tomonidan sotilgan tovarlar va xizmatlar umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadi. O'zbekistondagi asosiy universal elektron savdo maydonchasi - bu Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan yaratilgan Trade Uzbekistan savdo maydonchasi ([tradeuzbekistan.com](http://tradeuzbekistan.com) veb-sayti). Boshqa elektron savdo maydonchalari ham ishga tushirildi, masalan, B2B formatidagi to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari uchun [uzbtextile.com](http://uzbtextile.com), kichik va o'rta biznes uchun [universal.uz](http://universal.uz) va boshqalar. O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish darajasi hali ham past darajada. 2024-yil yanvar holatiga e-tijorat.uz elektron tijorat sub'ektlari milliy reestrda faqat 524 ta sub'ekt ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, elektron tijorat sohasida ishlaydigan 1392 ta veb-sayt (2024-yil yanvar oyi holatiga ko'ra) [www.uz](http://www.uz) ma'lumot olish milliy tizimida mavjud. 2022-yilning ikkinchi choragida elektron tijorat operatsiyalari soni 75,39 millionni, bitimlar hajmi esa 3,515 trln. so'mni tashkil etdi. Birinchi chorakda ushbu ko'rsatkichlar 73,8 million va 2,516 trln. so'mni tashkil etdi[27].

Davlat tomonidan berilgan soliq imtiyozlari soliq to'lovchilar ixtiyorida 1,9 mlrd. so'm bo'sh pul mablag'larini qoldirish imkonini beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 500 dan ortiq elektron tijorat sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, [www.tgstat.com](http://www.tgstat.com) sayti ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda savdo sohasida jami foydalanuvchilari 2 milliondan ortiq bo'lgan 100 dan ortiq yirik kanallar mavjud bo'lib, bu omillar davlat ro'yxatidan o'tmagan tadbirkorlik sub'ektlarining (xufiyona tijorat) rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek elektron tijorat (xizmatlar) bilan shug'ullanuvchi xorij firmalari [www.tax.uz](http://www.tax.uz) portali orqali o'z ixtiyorlari bilan ro'yxatdan o'tishmoqda. O'zbekistonda 2023-yilda jami 56 ta elektron xizmat ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalar qariyb 70 milliard so'm soliq to'lagan. Bunda, to'langan soliqlarning 90 foizdan ko'prog'i elektron xizmatlar ko'rsatuvchi **10 ta xorijiy kompaniya** hissasiga to'g'ri kelgan. 2023-yilda yilda eng ko'p soliq to'lagan xorijiy kompaniya Meta bo'ldi. Kompaniya tomonidan to'langan soliqlar **26,4 milliard so'mni** tashkil etgan. Undan keyingi o'rinlarni Google va Apple kompaniyalari egallagan va ular mos ravishda 20,3 milliard so'm va 12,9 milliard so'm soliq to'lagan. 2020-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksida "Google solig'i" ko'zda tutilgan. Oradan bir oy o'tgach, Davlat soliq qo'mitasi xorijlik internet kompaniyalari soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishlari uchun QQS-ofisini ochdi. Xorijiy internet-kompaniyalar

2021-yilda 15 milliard soʻmdan ziyod soliq toʻlagan boʻlsa, 2022-yilning 11 oyi davomida qariyb 45 milliard soʻm soliq toʻlagan.

Statista xalqaro maʼlumotlar bazasi Oʻzbekistondagi elektron tijorat sohasi haqida quyidagi maʼlumotlarni keltirib oʻtdi:

2020-yilda, mamlakatning elektron tijorat yoʻnalishi 481.3 million dollar daromad keltirdi va bu raqamli iqtisodiyotdagi umumiy daromadning 68 foizini tashkil etdi. Qolgan 32 foiz raqamli ommaviy axborot vositalari, elektron xizmatlar va elektron sayohatlar hisobidan boʻldi.

Shu yilda, raqamli xarajatlar aholi jon boshiga isteʼmol xarajatlarning 1.2 foizini tashkil qildi, bu koʻrsatkich Osiyo oʻrtachasidan (3.1 foiz) past edi. 2025-yilga borib, elektron tijorat daromadlarining yillik 6.3 foizga oʻsishi kutilmoqda.

Onlayn xaridlar tarkibida asosan moda tovarlari (32 foiz) va elektronika (31 foiz) ustuvor boʻldi, keyin oziq-ovqat va shaxsiy gigiyena mahsulotlari (14 foiz), oʻyinchoqlar, sevimli mashgʻulotlar va uy-roʻzgʻor buyumlari (11.5 foiz) hamda mebel va texnologiya (11 foiz) kabi tovarlar keldi.

Oʻzbekistonda elektron tijorat sanoati rivojlanishning dastlabki bosqichida. 2022-yil ohiriga koʻra, internetdan foydalanuvchilar soni 26,723 million kishini tashkil etdi va 36,7 million kishilik mamlakatda 25,3 million mobil internet foydalanuvchisi va 3,2 million doimiy keng polosali internet foydalanuvchisi mavjud. Xalqaro maʼlumotlarni uzatish kanallarining oʻtkazish qobiliyati 1800 Gbit/s ni tashkil etdi va 2024-yil oxiriga kelib 3200 Gbit/s gacha oshirilishi kutilmoqda[27]. Oʻzbekiston telekommunikatsiya infratuzilmasiga koʻplab sarmoya kiritmoqda. Speedtest.net xalqaro internet tezligini baholab boruvchi indeksning 2024-yil maʼlumotlariga koʻra, maʼlumotlarni yuklab olish tezligi 26,97 Mbit/s va yuklash tezligi 11,25 Mbit/s boʻlgan mobil internet boʻyicha 144 mamlakat ichida 91-oʻrinni egallab avvalgi yilga nisbatan 4 pogʻona yuqoriga koʻtarilgan. Qattiq keng polosali internet boʻyicha 59,09 Mbit/s yuklab olish va 53,44 Mbit/s yuklash tezligi bilan 181 mamlakat ichida 89-oʻrinni egallab avvalgi yilga nisbatan bir pogʻona yuqoriga koʻtarilgan[28]. Oʻzbekiston elektron tijorat sohasini rivojlantirish boʻyicha qator muhim qadamlarni amalga oshirmoqda:

Birinchiidan, dori vositalari va tibbiy asbob-uskunalarini onlayn sotish qonun tomonidan ruxsat etildi. Shuningdek, tovar va xizmatlar uchun toʻlovning qonuniy isboti sifatida elektron cheklar va schyot-fakturalar tan olindi.

Ikkinchiidan, raqamli toʻlovlar tizimini mustahkamlash maqsadida, Oʻzbekiston Markaziy banki 2019-yilda Visa bilan infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha memorandum imzoladi. Koʻplab banklar esa onlayn toʻlovlarni qayta ishlash uchun elektron tijorat veb-saytlariga maxsus dastur va xizmatlarni taqdim eta boshladi.

Uchinchiidan, elektron tijorat sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash maqsadida, 2018-yilda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida tegishli yoʻnalish ochildi.


Ushbu choralarsiz, Oʻzbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish, xususan, raqamli toʻlovlar tizimini mustahkamlash va sohaga oid malakali mutaxassislar kadrlar bazasini shakllantirish qiyin boʻlardi.

Oʻzbekiston Eksportni qoʻllab-quvvatlash agentligi Xitoyning Alibaba elektron tijorat kompaniyasi bilan hamkorlikda 2020-yil oktabr oyida Alibaba.com platformasida “Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan” boʻlimini yaratdi va unda tanlangan mahalliy kompaniyalar

mahsulotlari namoyish etiladi; hukumat Alibaba.com platformasida 300 dan ortiq mahalliy kompaniyalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun moliyaviy yordam ko'rsatishni rejalashtirmoqda.

O'zbekiston hukumati 2021-2022 yillarda raqamli infratuzilmani rivojlantirishga 2,5 milliard AQSH dollari sarmoya kiritishni rejalashtirayotganini ma'lum qildi. 2022-yil 1-iyuldan boshlab investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Raqamli transformatsiya markazi mas'ul bo'lgan elektron tijorat uchun "Ochiq raqamli ekotizim" axborot tizimlari majmuasi ishga tushirildi. Ekotizimda savdo tomonlarning shartnoma majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun elektron hisob qaydnomasi bo'lib, raqamli ekotizimga integratsiyalashgan elektron tijorat platformalari operatorlarining daromad solig'i stavkasi 2024-yil 1-yanvargacha 50 foizga pasaytiriladi.

Mamlakatimizda elektron tijorat axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnomalar bo'yicha, shu jumladan, oferta usulida, birja va auksionlar orqali hamda boshqa elektron savdo maydonlari yordamida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishni o'z ichiga oluvchi tijorat sektorlaridan tushgan daromad 2017-yilda 6377.8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 27755 mlrd. so'mni tashkil etdi, ya'ni 2017-yilga nisbatan qariyb 4,5 barobarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Elektron tijoratni o'zini alohida tahlil qilib ko'rsak, 2017-2022 yillarda daromadi 10.1 mlrd. so'mdan 9694 mlrd. so'mga yetgan bo'lib, ya'ni qariyb 10 barobarga o'sganini ko'rish mumkin.




**5-rasm. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi (mlrd.so'm).**

Mazkur ko'rsatkichlar raqamli iqtisodiyotning mazkur sohasi mamlakatimizdagi ko'plab tarmoq va sohalarga nisbatan ancha yuqori sur'atlari bilan o'sib kelganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mamlakat YaIM da elektron tijoratning ulushi ko'plab rivojlangan mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada past. Xususan, 2021-yilda axborot iqtisodiyotining mamlakat YaIM dagi ulushi atigi 2,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 3.3 foizdan iborat bo'ldi. Elektron tijoratning ulushi esa 2021-yilda atigi 0.6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 2 barobarga oshganini ko'rish mumkin (6-rasm). Ammo o'sish surati yuqori bo'lishiga qaramay jahon mamlakatlariga taqqoslaganda bu ko'rsatkichlar anchagina pastligi ko'rish mumkin. O'z navbatida ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda




elektron tijoratning YaIM shakllanishidagi ahamiyati ortib bormoqda. Masalan, 2022-yilda Buyuk Britaniyada elektron tijoratning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 9.3% tashkil etgan, Germaniyada - 6.9%, Shvetsiyada - 5,8 % iborat bo'ldi.



**6-rasm. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (foizda)**


Mamlakatimizda 2017-yilda respublika aholisining internetga ulangan aholi soni 11 168.0 ming nafarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 26 723.6 mln nafarini tashkil etdi (7-rasm).



**7-rasm O'zbekistonda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni**  
(yil ohiriga, ming birlik)

Ya'ni 2017-yilda har 100 nafar aholining 35 nafari internet tarmog'iga ulangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib qariyb 73 nafarga yetdi. Shu bilan birga, internetga ulangan

aholining sonini mamlakatlar hududi bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, internetga ulanganlarning asosiy qismi, eng yuqori ko'rsatkich 5358 ming kishi (14,6%) Toshkent shahriga to'g'ri kelganini ko'rishimiz mumkin.




**8-rasm. Hududlar kesimida internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni**  
(2022-yil ohiriga, ming birlik)

Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkichlar esa Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlariga to'g'ri kelganini ko'rishimiz mumkin. Bu bir tomondan ushbu viloyatlarda aholi sonini kamligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan mamlakatimiz ayrim hududlarida internet qamrovi darajasining pastligi bilan izohlash mumkin. Masalan, Toshkent shahrida har 100 kishiga internetga ulanganlar soni 185,1 nafarni tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryoda – 75,8, Navoiy – 83,9, Jizzaxda – 61,4 nafarni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichning eng kam darajalari Surxondaryo (55,4), Qashqadaryo (55,3) va Toshkent viloyatlarida (56,9) qayd etilgan. Mamlakatimizning barcha hududlarida global internet tarmog'iga ulanish, barcha hududlardagi korxonalar va tashkilotlarni imkon qadar to'liq va yuqori tezlikli internet bilan ta'minlash, uning sifatini yaxshilash hamda mahalliy uyali aloqa operatorlari aloqa xizmatlarini samarali yo'lga qo'yish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2020-2030 yillarda hukumat aholini internet bilan ta'minlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish borasida bir qator muhim qadamlarni qo'ydi. Xususan,

- 2020-yil oktabr oyida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining qabul qilinishi;
- hukumat butun mamlakat bo'ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog'i uzunligini hozirgi 118 ming kilometrdan (73 322 milya) 2030-yilgacha 250 ming kilometrga (155 343 milya) oshirishni rejalashtirmoqda;
- 2030-yilga borib yuqori tezlikdagi internet qamrovini hozirgi 67 foizdan 100 foizgacha oshirish;
- 2022-yilgacha keng polosali mobil aloqa tarmog'i qamrovini joriy 78 foizdan 100 foizgacha kengaytirish;

➤ axborot texnologiyalari sohasida oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalariga qabul qilish uchun yillik kvotani 2030-yilga borib hozirgi 7 mingdan 20 ming nafarga oshirish.



**9-rasm. Rivojlangan mamlakatlar va O'zbekistonda chakana savdo hajmida elektron tijoratning ulushi (foizda)**

Xalqaro ekspertlarining hisobotlariga ko'ra, 2022-yilda jahon chakana savdosida chakana elektron tijoratning ulushi 24,0 foizni tashkil etdi[29]. Mazkur hisobotga ko'ra, top-5 talikka Xitoy (45,3 %), Buyuk Britaniya (35,9%), Janubiy Koreya (30,1 %), Indoneziya (28,1 %) va Singapur (17,2 %) mamlakatlari yetakchilik qilib kelmoqda. Ammo O'zbekistonda chakana savdo hajmida elektron tijoratning ulushi 0,6 foizni tashkil etib, jahon o'рта ko'rsatkichlariga nisbatan ancha past hisoblanadi, (9-rasm).

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Quyidagilar O'zbekistonda elektron tijorat sohasini rivojlantirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi:

Huquqiy bazani takomillashtirish: Elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni zamon talablariga moslashtirish, aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan holda soha rivojiga shart-sharoitlar yaratish zarur.

Tashqi bozorga chiqishni osonlashtirish: Mahalliy korxonalarining xorijiy bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, eksportni rag'batlantirish maqsadida elektron tijorat orqali tovar va xizmatlar sotishga oid eskirgan byurokratik to'siqlarni bartaraf etish muhimdir.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish: Elektron biznesni rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'g'ri va oqilona tatbiq etish kerak.

Integratsiya va hamkorlik: Milliy to'lov tizimlarini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalashtirishga e'tibor qaratish, eksport salohiyatini oshirish hamda ichki bozorning raqobatbardoshligini mustahkamlash zarur.

Targ'ibot va ommalashtirish: Elektron tijoratning imkoniyatlari va afzalliklari, jumladan naqd pulsiz hisob-kitoblarni keng ommalashtirish talab etiladi. Bu soha rivojlanishining salbiy oqibatlariga yo'l qo'ymaslik muhimdir.

Soliq siyosatini qayta ko'rib chiqish: Mavjud soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlikni, shu jumladan ommaviy axborot vositalarining faoliyatini rag'batlantirishi lozim.

Ushbu choralar bilan bir qatorda malakali kadrlar tayyorlash, sohaga oid ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash ham elektron tijoratning rivojlanishiga yordam beradi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ефимова Н.А., Тарасов А.С. Совершенствование работы интернет-магазина // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. 2018. № 5 (72). С. 174-183.
2. Колесниченко С.А. КРІ и повышение эффективности работы интернет-магазина // Экономика. Бизнес. Информатика. 2016. Т. 2. № 3. С. 39-46.
3. Шаврук Е.Ю., Ванкович Г.Р. Регионализация интернет-магазинов // Экономика. Бизнес. Финансы. 2018. № 1. С. 3-6.
4. Хапилина К.А. Современные проблемы управления предприятиями электронной торговли и их динамика развития в Украине // Образование и наука без границ: социально-гуманитарные науки. 2016. № 4. С. 109-111.
5. Фалеева Т.О. Выбор метода прогнозирования продаж интернет-магазина // Поиск (Волгоград). 2017. № 2 (7). С. 52-56.
6. Мансурова Н.А., Алтынбаев И.О. Оценка работы интернет-магазина // Экономические исследования. 2018. № 1. С. 4.
7. Bragin L.A., Ivanov G.G., Panasenکو S.V., Efimovskaya L.A., Karashchuk O.S., Krasilnikova E.A., Mayorova E.A., Nikishin A.F., Aleksina S.B., Boykova A.V., Tyunik O.R. / Ed. by S. Panasenکو, A. Nikishin, E. Mayorova. Globalization of Trade Based on Innovations. Hamilton, 2018.
8. Майорова Е.А., Никишин А.Ф., Панкина Т.В. Систематизация показателей развития электронной торговли // Азимут научных исследований: экономика и управление. 2020. Т. 9. № 1(30). С. 244-247
9. Захаров А.Н., Чехранова Т.А. Тенденции развития электронной торговли в международной практике // Российский внешнеэкономический вестник. 2019. № 6. С. 102-106.
10. Ядова Н.Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2019. № 2. С. 116-125.
11. Чжон Б. Электронная торговля в республике Корея: современное состояние и особенности // Вестник Института экономики Российской академии наук. 2019. № 5. С. 178-190.
12. Хань Ч. Современное состояние развития электронной торговли в Китае // Известия Санкт Петербургского государственного экономического университета. 2017. № 4 (106). С. 166-1
13. <https://infocom.uz/dunyo-boylab-elektron-tijorat-statistikasi-va-faktlari/>
14. U.Q.Yakubov, M.I.Azizova, M.Yu.Jumaniyozova (2019). "ELEKTRON TIJORAT" o'quv uslubiy majmua 17-bet.
15. Nanekaran Y. K. An Introduction to electronic commerce. International journal of scientific and technology research, 2013, vol. 2, no. 4, pp. 41-48. doi: 10.1109/CICC-ITOE.2010.39
16. Jeffrey B. Defining international electronic commerce [Int'l L. & Bus] Available at: <https://trends.rbc.ru/trends/industry/607fe4549a7947027eaffbe6>
17. German M.V., Yuldashev Sh.Q., Usmanova D.Q., Xalikova L.N. Elektron tijorat asosalari. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2021. 11-bet.
18. Sh.Q.Yuldashev, D.Q.Usmanova, L.N.Xalikova, M.V.German. Elektron tijorat asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 11-bet

19. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni, 3-moddasi.
20. Chizma muallif g`oyasi asosida chizilgan.
21. <https://www.statista.com/statistics/379046/worldwide-retail-e-commerce-sales/#:~:text=In%202023%2C%20global%20retail%20e,eight%20trillion%20dollars%20by%202027.>
22. <https://www.insiderintelligence.com/content/worldwide-ecommerce-continues-double-digit-growth-following-pandemic-push-online>
23. [stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot](http://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot)
24. Rustamov A. O‘zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortishning yangi bosqichlari, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, volume 1 | issue 4
25. Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan.
26. E.Asqarov. Elektron tijoratning yangi o‘zbekistonga kirib kelishi, savdo va servis sohalarida foydalanilishi, Yosh tadqiqotchi jurnali. Vol. 1 No. 5 (2022)
27. <https://infocom.uz/elektron-tijorat-raqamli-iqtisodiyot-rivojlanishining-istiqbolli-omilidir/>
28. <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan#mobile>
29. <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan#mobile>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3(4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).